

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXMONOV ZAFARJON ZAYNIDDINOVICH

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI O‘TASH INSTITUTI
(QIYOSIY-HUQUQIY TADQIQOT)**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD)**

Raxmonov Zafarjon Zayniddinovich

Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash instituti (qiyosiy-huquqiy tadqiqot).....3

Rakhmonov Zafarjon Zayniddinovich

Institute of State Civil Service (comparative-legal research).....21

Рахмонов Зафаржон Зайниддинович

Институт прохождения государственной гражданской службы
(сравнительно-правовое исследование).....38

E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works.....42

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXMONOV ZAFARJON ZAYNIDDINOVICH

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI O‘TASH INSTITUTI
(QIYOSIY-HUQUQIY TADQIQOT)**

12.00.02. – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1415 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupov Sardorbek Baxodirovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Ruzmetov Xayrullo Ibadullayevich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Zakirova Sevara Muradovna
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Davlat boshqaruvi
akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 13-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36, faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1361-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 27-fevral kuni tarqatildi.

(2025-yil 27-fevraldagi 19-son reyestr bayonnomasi).

R.R. Xakimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

F.B. Maxmudov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori, dotsent

I.R. Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda davlat va jamiyat rivojlanishi asosida mehnat faoliyatini olib borayotgan, islohotlarni amalga oshirayotgan mutaxassis hamda kadrlarning bilim va salohiyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boisi davlat boshqaruvini amalga oshirish aynan davlat fuqarolik xizmatchilariga, ularning professionalligi va kasbiy mahoratiga, shu bilan birga, ularning ish haqi, ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoyalash, faoliyat samaradorligini baholash tizimiga ham bog'liqdir. Davlat fuqarolik xizmatini samarali tashkil etish ushbu sohaga oid xalqaro reyting va indekslarda davlatning yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlaydi. 2023-yil oktabrda e'lon qilingan Huquq ustuvorligi indeksida dunyoning 142 ta davlati orasida O'zbekiston 78-o'rinni egalladi. Ta'kidlash lozimki, 2016-yildan 2023-yilga qadar mamlakatimiz huquq ustuvorligi eng tez yaxshilangan davlatlar orasida 8,9 foiz o'sish ko'rsatkichi bilan birinchi o'rinni egallagani e'tirof etildi¹. Ushbu holat davlat boshqaruvi, shu jumladan davlat fuqarolik xizmati tizimini doimiy takomillashtirib borish zarurligini taqozo etadi.

Jahonda globalizatsiya jarayonlarining tobora rivojlanishi sababli davlat organlari va tashkilotlarida ixcham, professional va natijador davlat xizmatini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvi tizimi zamonaviy standartlar asosida isloh qilinayotgan bugungi davrda ham islohotlar markazida davlat boshqaruvi apparatini eng munosib, malakali kadrlar bilan ta'minlash dolzarb masala bo'lib qoladi. Hozirgi kunda xalqaro doirada "Hukumat samaradorligi" (Government Effectiveness) yoki "Davlat fuqarolik xizmati samaradorligi bo'yicha xalqaro indeks" (The International Civil Service Effectiveness Index) kabi davlat boshqaruvi va davlat xizmatiga taalluqli reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash uchun mamlakatlar doimiy ravishda islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda davlat boshqaruv tizimi samaradorligini takomillashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Biroq sohada bir qator dolzarb muammolar ham borki, ularni tahlil qilish, kamchiliklarni bartaraf etish va sohani rivojlantirish alohida ilmiy tadqiqot ishi doirasida o'rganishni taqozo etmoqda. Xususan, professional davlat fuqarolik xizmatchilari korpusini yaratish tizimi ishlaymagan, jumladan, sohada davlat boshqaruvining o'rnini mustahkamlanmagan, munosib kadrlarni tanlash va tayyorlash tizimi yetarlicha yo'lga qo'yilmagan, davlat fuqarolik xizmatchisini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish mexanizmlari mavjud emas, bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholash mexanizmlari va tartib-taomillari takomillashtirishga muhtoj. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat fuqarolik xizmati faoliyatini tartibga soladigan hujjatlar bugungi kun talab va vazifalariga javob bermayapti, sohadagi barcha masalani qamrab olmasdan, yagona huquqiy standartlar hamda ma'muriy-

¹ <https://www.worldbank.org/en/publication/worldwide-governance-indicators/interactive-data-access>

boshqaruv amaliyotini o'rnatishga xalaqit qilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish darajasining pastligi, yagona kadrlar siyosatining yo'qligi, davlat fuqarolik xizmatchilarining ijtimoiy va huquqiy himoyasi ular tomonidan bajarilayotgan vazifalarga mos emasligi davlat fuqarolik xizmatchilarining ish faoliyatiga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu holatlar esa davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizmini tahlil qilish, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatida ochiqlik va qonuniylikni ta'minlash borasida tadqiqot olib borish zaruratini vujudga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'RQ-788-son Qonuni (2022), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son (2017), "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son (2017), "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-son (2019), "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6257-son (2021), "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son (2022) Farmonlari, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-son (2019) qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-son (2022) qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktorining 2024-yil 24-oktabrdagi 2-2022-son buyrug'i bilan "Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini eng muhim ko'rsatkichlar asosida baholash uslubiyati" va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat fuqarolik xizmatini o'tash instituti va uning yuridik tabiati huquqshunos olimlar tomonidan muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lib, mavjud tahlillar asosan umumiy yondashuvga asoslangan.

Mamlakatimiz huquqshunos olim va tadqiqotchilaridan B.Sh. Mirboboyev, U.T. Tojixonov, A.A. Azizxo'jayev, R.R. Xakimov, B.B. Alimov, O.T. Xusanov, X.T. Azizov, Sh.G'. Asadov, A.M. Qodirov, D.M. Bekchanov,

E.T. Xojiyev, G.S. Ismailova, A.E. Yo‘ldoshev, N.Sh. Said-Gaziyeva, I.A. Xamedov, S.B. Yusupov, X.S. Xayitov, J.N. Nematov, F.U. Yuldasheva, F.B. Isayeva, F.B. Maxmudov² va boshqalar tomonidan davlat xizmati, shu jumladan, davlat fuqarolik xizmatiga oid huquqiy masalalar tadqiq etilgan.

MDHga a‘zo davlatlarda davlat fuqarolik xizmatini o‘tashga oid masalalarning ayrim jihatlari A.V. Gusev, L.A. Chikanova, V.V. Cherepanov, D.M. Ovsyankov, A.S. Adamovich, Y.N. Starilov, A.P. Alexin, D.N. Baxrax, D.X. Salikov, Y.M. Kozlov, D.M. Ovsyanko, Y.N. Starilov, T.S. Suxodayeva, L. Yefremov, O.M. Kiseleva, A.V. Malko, Y.V. Tipikina, V.A. Grigorev, A.N. Karavayev, V.V. Popov³ kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

Tadqiqot olib borish jarayonida Ann Raludan, Jennifer Oser, Harris J., Muroi Tsutomu, Harris J, Goetz K., Heinrich Amadeus, Wolff Sylvia Horton, Jessisa Breaugh, Gerhard Hammersshmid, Xong M.⁴ kabi xorijlik mutaxassislarining tadqiqot ishlari o‘rganildi.

Shunga qaramasdan, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash instituti va uning yuridik tabiati ma‘muriy huquq nuqtayi nazaridan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida davlat boshqaruvini yanada erkinlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi davlat fuqarolik xizmatini o‘tash instituti, huquqiy asoslari va amaliyotini o‘rganish orqali uni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslantirilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

davlat fuqarolik xizmatini o‘tash institutining ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish;

davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslari evolyutsiyasini tahlil qilish;

davlat boshqaruvi tizimida davlat fuqarolik xizmati va uning davlat vakolatli subyektlari tomonidan tartibga solinishi tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatini o‘tashning ilmiy-nazariy asoslarini milliy huquq tizimi va roman-german, anglo-sakson hamda Osiyo davlatlari huquq tizimi tajribasi asosida tadqiq etish;

O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tizimini takomillashtirishning ayrim masalalarini o‘rganish;

² Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

³ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

⁴ Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

davlat fuqarolik xizmatini o‘tashda huquqiy va ijtimoiy himoyaning ahamiyati, bunda rag‘batlantirish, mehnatga haq to‘lish, kasbiy kompetensiyani oshirib borish, rotatsiya va attestatsiya masalalarini tahlil qilish;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashda raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda davlat fuqarolik xizmatini o‘tash instituti va uni huquqiy tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar olingan.

Tadqiqot predmetini davlat fuqarolik xizmatini o‘tash institutining ilmiy-nazariy hamda tashkiliy-huquqiy asoslariga oid qonunchilik hujjatlari, ularni qo‘llash amaliyoti, xorijiy tajriba hamda yuridik fanda mavjud konseptual yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlar, nazariyalar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tizimlashtirish, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, umumlashtirish, mantiqiylik, ijtimoiy so‘rov hamda ma‘lumotlarni tizimli tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

davlat fuqarolik xizmatchisini davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan himoya qilishning muhim bir elementi sifatida ularning hayoti va sog‘lig‘ini majburiy sug‘urta qilishni belgilash zarurligi asoslantirilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisini davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan himoya qilishda tibbiy xizmat ko‘rsatishning ahamiyati ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyati davomida xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy tarzda oshirib borishi lozimligi asoslangan;

davlat fuqarolik xizmatchisi o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmasligi, ularning ta‘siridan saqlanishi, fuqarolar huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olishi zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davlat xizmatiga oid munosabatlarni tizimli asosda tartibga solish va davlat xizmatini tasniflash jarayonida vujudga kelgan huquqiy bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi davlat xizmati asoslari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilib, unda davlat xizmatining turlarini aniq belgilash bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestrini shakllantirishda ularning vakolatlariga (siyosiy, ma‘muriy va texnik) va darajalariga (milliy, respublika, viloyat va tuman (shahar) qarab tasniflash taklifi ishlab chiqilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan davlat fuqarolik xizmati sohasidagi davlat dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish jarayonida parlament deputatlari va kasaba uyushmalari a‘zolarini ham jalb qilish amaliyoti bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Odob-axloq komissiyasi tarkibiga tajribali, obro‘-e‘tiborga sazovor bo‘lgan ikki nafar jamoatchilik faollarini kiritish kerakligi asoslab berilgan holda amaldagi qonunchilikka taklif ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholashda baholanayotgan xodim va jamoaning ham fikrini inobatga olish lozimligi bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish usullarini belgilash va bunda jamoatchilik nazoratini ta‘minlash yuzasidan qonunchilikka taklif ilgari surilgan;

respublika bo‘yicha hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko‘rsatkichlariga qarab davlat fuqarolik xizmatchilarini moddiy rag‘batlantirish tizimini joriy etish bo‘yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga takliflar ishlab chiqilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisi xizmatni o‘tash jarayonida korrupsiya yoki manfaatlar to‘qnashuvi sodir etilganini to‘g‘ridan to‘g‘ri egallab turgan lavozimidan ozod qilishga asos sifatida belgilash yuzasidan qonunchilikka taklif ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishining xulosalari davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tizimiga oid xorijiy mamlakatlar va milliy qonunchilikni tahlil qilish asosida ilgari surilgan. Xususan, davlat fuqarolik xizmatini o‘tashning roman-german, anglo-sakson va Osiyo davlatlari huquq tizimi tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llangan nazariy yondashuv va usullarning rasmiy manbalardan olingani, o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma natijalariga asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda keltirilgan ilmiy-nazariy xulosalar ta‘lim sohasida Davlat va huquq nazariyasi, Konstitutsiyaviy huquq, Ma‘muriy huquq, Davlat xizmati, Davlat boshqaruvi va Inson resurslarini boshqarish kabi fanlar bo‘yicha ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar, shuningdek, shu sohada ilmiy tadqiqotlarni olib borishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilishi davlat fuqarolik xizmatini o‘tashga oid qonunchilikni va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga, davlat fuqarolik xizmatchilarini huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilishni, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyati samaradorligini baholashning takomillashuviga xizmat qilishi uning amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan natijalardan quyidagilarda foydalanildi:

davlat fuqarolik xizmatchisini davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan himoya qilishning muhim bir elementi sifatida ularning hayoti va sog‘lig‘ini majburiy sug‘urta qilishni belgilashga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son

Qonuni 53-moddasi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 19-sentabrdagi 04/10-10-44-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi davlat tomonidan davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning muhim bir elementini belgilashga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisini davlat tomonidan ijtimoiy jihatdan himoyalash turlaridan biri sifatida tibbiy xizmat ko‘rsatishni belgilashga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustdagi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonunining 53-moddasi yettinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 19-sentabrdagi 04/10-10-44-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatchisini ijtimoiy jihatdan himoya qilish turlaridan birini belgilashga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisi faoliyati davomida xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy tarzda oshirib borishigi oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari 9-bandi oltinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyati Axborot tahlil va yuridik ta‘minlash departamentining 2023-yil 23-oktabrdagi 12-15-98-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatchisi qanday lavozimda bo‘lishidan qat‘i nazar xizmat majburiyatlarini samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni doimiy asosda oshirishni belgilashga xizmat qilgan;

davlat fuqarolik xizmatchisi o‘z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda fuqarolar va boshqa shaxslarni kamsitmasligi, ularning ta‘siridan saqlanishi, fuqarolar huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olishi zarurligiga oid taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalari 9-bandi o‘n uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2022-yil 18-dekabrdagi 12/21-98-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi davlat fuqarolik xizmatchisi xizmat faoliyatida fuqarolarni kamsitmasligi, shuningdek, ularning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olishi shart va zarurligini belgilashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-

amaliy konferensiya, davra suhbatlari, seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, ilmiy jurnallarda 8 ta maqola (2 tasi xorijiy nashrda) va to‘plamlar tarkibida 9 ta maqola (3 tasi xalqaro anjumanlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 9 paragrafni qamrab olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 133 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Davlat fuqarolik xizmati institutining tushunchasi va tarkibi”** deb nomlanib, davlat fuqarolik xizmati institutining tushunchasi va tarkibi, davlat xizmati, davlat xizmatchisi, davlat fuqarolik xizmati, davlat fuqarolik xizmatchisi, davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tushunchalari va mohiyati, ushbu tushunchalarning nazariy-huquqiy masalalari, davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslari evolyutsiyasi, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida davlat fuqarolik xizmati va uning davlat vakolatli subyektlari tomonidan tartibga solinishi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Ushbu bobning “Davlat fuqarolik xizmati institutining tushunchasi va tarkibi” deb nomlangan birinchi paragrafida “davlat xizmati” va “davlat fuqarolik xizmati” tushunchalariga oid muhim qarashlar va tushunchalar tahlil qilingan. Bu borada olimlarning (B.M. Lazerev Y.N. Starilov A.P. Alexin Y.M. Kozlov A.P. Baxrax A.V. Gusev L.A.Chikanova M.Veber N.Sh. Said-Gaziyeva, B.Sh. Mirboboyev, E.T. Xojiyev va X.T. Azizov X.T. Azizov F.U. Yuldasheva I.A. Xamedov K.P. Suk X.Xayitov F. Maxmudov) fikr-mulohazalari o‘rganilib, ushbu tushunchalar bir-biridan farq qilishi, davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatining bir turi ekanligi, mazkur tushunchalarni o‘zaro farqlaydigan aniq normalarni milliy qonunchilikda aks etish lozimligi ta’kidlangan.

“Davlat fuqarolik xizmatchisi” tushunchasi o‘rganilib tahlil qilingan holda, ushbu tushuncha haqida milliy olimlarning qarashlari ko‘zga tashlanmasligi, shuningdek yuridik adabiyotlarda va milliy qonunchilikda ta’rif berilmaganligi

sababli mualliflik ta’rifi ishlab chiqilib, milliy qonunchilikda ham ushbu tushunchani aniq izohlash ta’kidlangan.

“Davlat fuqarolik xizmatini o’tash” tushunchasiga oid olimlarning (E.T. Hojiyev, S.B. Yusupov, F.B. Isayeva, X. Xayitov, F.U. Yuldasheva) muhim qarashlari tahlil qilingan holda, davlat fuqarolik xizmatini o’tash davlat xizmatidagi muhim jarayon ekanligi, mazkur tushunchani milliy qonunchilikda to’liq, asosli va aniq qilib belgilash lozimligi qayd etilgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi “O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatining huquqiy asoslari evolyutsiyasi” masalasiga bag‘ishlanib, unda ushbu jarayon bosqichlarga ajratilgan holda tadrijiy tahlil qilingan. O‘zbekistonda davlat fuqarolik xizmatiga oid qonunchilik quyidagi 3 bosqichda takomillashib borganligi qayd etilgan: umumiy davlat xizmatini tashkil etish bosqichi (1991-2008), davlat fuqarolik xizmati sohasi jahon zamonaviy standartlar asosida rivojlanish bosqichi (2008-2017), sohani tartibga soladigan alohida qonun hujjatlarining qabul qilish bosqichi (2017-yildan h.v.).

Birinchi bosqichda, (1991-2008) professional davlat fuqarolik xizmatini shakllantirish va rivojlantirish masalasiga sust qaralganligi, shartli ravishda aynan davlat fuqarolik xizmatiga oid bo‘lmasa ham umumiy davlat xizmatini tashkil etishga doir, garchi birmuncha tarqoq, lekin yetarli huquqiy baza, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi bilan davlat fuqarolik xizmatining ilk asoslari yaratilganligi, shuningdek, sohalarni tartibga soladigan va davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatiga oid ayrim qonunosti hujjatlari qabul qilinganligi ta’kidlangan.

Ikkinchi bosqichda (2008-2017) davlat fuqarolik xizmatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar birmuncha tarqoq bo‘lsa ham, jahon zamonaviy standartlar asosida rivojlanishga o‘tganligi, milliy huquqshunos olimlarning ham qarashlari ko‘paya boshlaganligi ko‘rsatilgan. Bu davrning o‘ziga xosligi davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari tasdiqlanganligi bilan izohlangan.

Uchinchi bosqich 2017-yildan boshlanib, bugungi kungacha davom etib kelayotgan va ushbu bosqichda davlat fuqarolik xizmati tubdan isloh qilish jarayoniga o‘tilganligi qayd etilgan. Davlatning muhim strategik dasturlari bo‘lgan Harakatlar strategiyasi, Ma’muriy islohotlar konsepsiyasi, Taraqqiyot strategiyasi va O‘zbekiston – 2030 strategiyasida davlat xizmatini takomillashtirish davlat boshqaruvini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanganligiga e’tibor qaratilgan. Natijada 2019-yilda davlat kadrlar siyosati bo‘yicha vakolatli organ – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil etilganligi, 2022-yil 8-avgustda esa uzoq kutilgan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinganligi, shuningdek, 2023-yil referendum orqali yangilangan Konstitutsiyada davlat xizmatiga oid alohida modda kiritilganligi ta’kidlangan.

Ushbu bobning “Davlat boshqaruvi tizimida davlat fuqarolik xizmati va uning davlat vakolatli subyektlari tomonidan tartibga solinishi” deb nomlangan

uchinchi paragrafida davlat fuqarolik xizmatida davlat boshqaruvining o'zini va zarurati bo'yicha olimlarning (V.P. Melnikov, V.S. Nechiporenko, Y.V. Oxotskiy, O.T. Xusanov, R.R. Xakimov, B.B. Alimov va b.) muhim qarashlari tahlil qilinib, rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilgan. Sohada davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi subyektlar qatorida Prezidentning faoliyati muhim ekanligi qayd etilib, Prezidentning davlat fuqarolik xizmati lavozimiga shaxslarni tayinlash va lavozimidan ozod qilishni aniq qilib belgilash uchun davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining davlat reyestri tasdiqlash va ularning kategoriyalarini belgilash lozimligi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi, maxsus vakolatli organ bo'lgan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan sohaga oid davlat dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ochiqlik hamda shaffoflikni ta'minlash maqsadida parlament deputatlari, kasaba uyushmalari a'zolari va jamoatchilik faollarini ham jalb qilish taklif etgan. Shuningdek, Agentlikning vazifa va funksiyalari qatoriga quyidagilarni ham qo'shish tavsiya etilgan: davlat fuqarolik xizmatchilarining amaliyot o'tash tartibini belgilash, davlat organlarining davlat fuqarolik xizmatchilariga stajirovkalar tashkil etish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq normativ tuzdagi va idoraviy-normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy tartibda kelishish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Davlat fuqarolik xizmatini o'tashga doir xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili”** deb nomlangan bo'lib, unda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning davlat fuqarolik xizmatini o'tashga doir tajribasi quyidagi huquq tizimidan kelib chiqqan holda tahlil qilingan: roman-german, anglo-sakson va Osiyo davlatlari huquq tizimi.

Ushbu bobning “Roman-german huquq tizimi davlatlarida davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimi (Germaniya, Fransiya va Italiya tajribasida)” deb nomlangan birinchi paragrafida ayrim roman-german huquq tizimi davlatlari tajribasi tahlil qilingan holda, mazkur davlatlarda davlat fuqarolik xizmati va davlat xizmati bir xil tushuncha sifatida izohlanishi ta'kidlangan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan milliy qonunchilikda davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonida davlat organlari va tashkilotlarida bo'ladigan ichki tanlovlarda talabgorning mehnat stajini ham e'tiborga olish tizimini yaratish taklifi ilgari surilgan.

Bundan tashqari, davlat fuqarolik xizmatchisining yuqori ijtimoiy mavqe, huquq va ijtimoiy himoyaning umrbod ta'minlanish kafolati, sohani tartibga soladigan asosiy hujjatda davlat fuqarolik xizmatchilariga oylik maosh to'lash tartibi va mehnat munosabatlari prinsiplarini belgilash tavsiya etiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “Anglo-sakson huquq tizimi davlatlarida davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimining o'ziga xos jihatlari (Angliya, AQSh, Kanada va Yangi Zelandiya tajribasida)” deb nomlangan. Anglo-sakson huquq tizimi davlatlarining aksariyatida davlat fuqarolik xizmati “ochiq anglo-sakson” modeliga asoslanishi, shuningdek, bu davlatlarning

ko'pchiligida davlat xizmati va davlat fuqarolik xizmati bir xil tushuncha sifatida qabul qilinishi ta'kidlangan.

Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimining shaxslar yuqoriroq lavozimga o'tishni istasa kadrlar bo'limiga ariza topshirishi va belgilangan kuni imtihon topshirib, so'ng uning natijasiga ko'ra yuqoriroq lavozimga ko'tarilishi tajribasini O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy qilish, davlat sektoridagi xizmat munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan nizolarni sudga bormasdan hal qilish maqsadida maxsus organ Davlat xizmati komissiyasini tashkil etish, rahbariyat tarkibiga kiradigan xizmatchilarning ish haqi miqdorini belgilash bo'yicha alohida tizim yaratish tavsiya etilgan.

Mazkur bobning "Osiyo davlatlari huquq tizimida davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimi (Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Singapur tajribasida)" deb nomlangan uchinchi paragrafida, muallif Osiyo davlatlaridagi davlat fuqarolik xizmatini o'tash jarayonidagi ayrim tartiblarni, xususan meritokratik tamoyil, yuqori maosh, moddiy-mulkiy rag'batlantirish kabi motivlarni milliy qonunchilikda mustahkamlanishi davlat fuqarolik xizmatchilarining samarali faoliyat yuritishiga, shuningdek, korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi degan xulosaga kelgan.

Bundan tashqari, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash natijalariga qarab, davlat organlari xizmatchilari, xususan, mahalliy davlat organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish yoki jarimaga tortishga oid tartibni O'zbekistonda ham bosqichma-bosqich joriy qilish, davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatini baholashda aholi, xususan, jamoatchilik vakillarining ham ishtirokini ta'minlashni milliy qonunchilikda aks ettirish tavsiya etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimini takomillashtirish masalalari**"ga bag'ishlangan bo'lib, unda tadqiqotchi tomonidan davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimi, davlat fuqarolik xizmatchisining huquqiy va ijtimoiy himoyasi hamda ularning faoliyat samaradorligini baholash tizimi tahlil qilingan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "O'zbekistonda davlat fuqarolik xizmatini o'tash tizimini takomillashtirishning ayrim masalalari" deb nomlangan. Dissertant davlat fuqarolik xizmatini "davlat fuqarolik xizmatiga kirish", "davlat fuqarolik xizmatini o'tash" va "davlat fuqarolik xizmatini tugatish" kabi tizimlarga bo'lgan holda o'rganish kerakligini qayd etgan. Davlat fuqarolik xizmatiga oid qonunchilikda meritokratiya tamoyili va "trampolin" karyera modelini qo'llashga oid normalarni aniq qilib belgilash taklif etilgan. Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan davlat fuqarolik xizmatchilarini attestatsiyadan o'tkazish xizmatni o'tash jarayonidagi muhim bosqich ekanligi ta'kidlanib, bu bo'yicha olimlarning (A.B. Kurakin, A.A. Savostin, A.S. Adamovich, Y.N. Starilov, F.U. Yuldasheva) mulohazalari tahlil qilingan holda mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafida "Davlat fuqarolik xizmatini o'tashda huquqiy va ijtimoiy himoyaning o'rni" o'rganilgan va tahlil qilingan. Bu borada olimlarning (O.M. Kiseleva, A.V. Malko, G.A. Malisheva va

X.T. Azizov) fikrlari tahlil qilingan holda, davlat fuqarolik xizmatchilarini himoya qilishni 2 turga “huquqiy himoya” va “ijtimoiy himoya”ga ajratish, davlat fuqarolik xizmatida rag‘batlantirish choralari huquqiy tartibga solishda ma’muriy huquq nuqtayi nazaridan yondashish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Shuningdek, mazkur paragraf doirasida davlat fuqarolik xizmatchilarining ish haqlarini belgilashda erkin bozor usullaridan foydalanish kerakligi, qonunchilikda “hayoti va sog‘lig‘ini majburiy sug‘urta qilish” va “tibbiy xizmat ko‘rsatish”ni ham belgilash taklif etilgan.

Mazkur bobning “Davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyatining samaradorligini baholashda raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari” deb nomlangan uchinchi paragrafida hozirgi raqamlashgan jamiyatda davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyat samaradorligini baholashning zarurati va ahamiyati bo‘yicha milliy olimlarning (Z.I. Israilova, F. Ismagilova, A.Xolov va F.U. Yuldasheva) muhim qarashlari tahlil qilinib, “davlat fuqarolik xizmatchilarini faoliyatini baholash” tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan. Tadqiqotchi tomonidan xizmatchilarning faoliyatini baholash indikatorlarini ishlab chiqish va yillik reytingini yuritib borish, indikatorlarning bir ko‘rsatkichi sifatida ommaviy axborot vositalari va keng jamoatchilikning fikrlarini o‘rnatishni ham aks ettirish ta’kidlangan.

Shuningdek, dissertatsiyada xalqaro doirada tan olingan “SWOT” tahlili usuli orqali O‘zbekiston Respublikasida davlat fuqarolik xizmatini o‘tash tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **II** qismida Yuristlar malakasini oshirish markazi tinglovchilari o‘rtasida va ijtimoiy tarmoqlarda 2023-yilda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalari hamda “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi, tushuntirish xati va taqqoslama jadval o‘rin olgan.

XULOSA

“Davlat fuqarolik xizmatini o‘tash instituti (qiyosiy-huquqiy tadqiqot)” mavzusida o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Milliy qonunchilikda “davlat xizmati” va “davlat fuqarolik xizmati” tushunchalari o‘zaro ajratilmagan, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida bu ikki tushuncha bir-birini to‘ldiruvchi tushunchalar sifatida tan olinsa, ba’zi davlatlarda funksional jihatdan farqlanadi, degan xulosaga kelindi.

2. Davlat fuqarolik xizmati davlat xizmatiga qaraganda torroq tushuncha hisoblanib, faqatgina belgilangan doiradagi, ya’ni maxsus reyestrda kiritilgan lavozimlarda o‘z faoliyatini olib boradigan davlat xizmatchilari deb qayd etildi.

3. Quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilib, ilmiy muomalada qo'llash taklif etildi:

davlat xizmati – davlat organlari, tashkilotlari, muassasalarida davlatning vazifa va funksiyalarini amalga oshiradigan, davlat tomonidan muayyan haq to'lab boriladigan kasbiy (professional) faoliyat;

davlat xizmatchisi – davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarida davlat byudjetidan doimiy maosh oladigan faoliyat bilan shug'ullanadigan fuqaro;

davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatining bir turi bo'lib, davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy (professional) faoliyat.

davlat fuqarolik xizmatchisi – maxsus reyestrda kiritilgan davlat fuqarolik xizmati lavozimini egallagan, davlat byudjetidan doimiy haq oluvchi, lavozimiga ko'ra huquq va majburiyatlarga ega fuqaro;

